

Ijtimoiy sheriklik-demokratik taraqqiyotning yangi bosqichi

*S.Karimov, Sh.O'rozov, X. Samatov.
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti*

(95)509-09-19, (mob)

(8366) 231-07-46 ish telefon

Prezidentimizning “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish borasidagi tashabbusi zamirida mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining tezkor rivojlanishiga erishish, ularni amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini ta’minlashdagi rolini yanada kuchaytirish maqsadi mujassamdir.

Darhaqiqat, bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarining biriga aylandi. So‘nggi o‘n yillikda aholining keng qatlamlari tomonidan qo‘llab, quvvatlanayotgan fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi yangi bosqichga kirdi.

Bugungi kunda yurtimizda 6500 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko‘rsatmoqda va bu ko‘rsatkich 2000 yilga qaraganda 2,5 barobar ko‘pdir. Ayni vaqtda nodavlat notijorat tashkilotlarining 40 foizi fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish, 14,2 foizi xotin-qizlar va yoshlar muammolarini hal qilish, 13,6 foizi sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya 32 foizi esa boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalar bilan shug‘ullanmoqda.

Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Jamoat fondlari to‘g‘risi”gi qonunlar, Prezidentimizning “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko‘maklashish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Oliy Majlis palatalari Kengashlarining “Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori mazkur sohani rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratib berdi.

Ijtimoiy sheriklik tamoyili o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra ijtimoiy adolat, fuqarolar farovonligi, ularning ijtimoiy himoyasi haqida qayg'urish kabi majburiyatni oladi. Shuningdek, ijtimoiy yo'naltirilgan siyosatni o'zining asosiy vazifasi deb bilib, mazkur siyosatning Konstitutsiyada belgilangan yo'nalishlarning keng qamrovli amalga oshirishda tashabbuskorlik ko'rsatadi. Mazkur tamoyilga amal qilgan holda davlat, o'z organlari orqali uzluksiz ravishda ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi muammolarni hal qilish choralari ko'rib boradi. Fuqarolik jamiyatining asosiy elementlari bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarni o'zini –o'zi boshqarish organlari ana shu tamoyil asosida davlat tashkilotlari bilan hamkorlikni shakllantirib boradi.

Ijtimoiy sheriklik- o'z navbatida yuqorida ko'rsatib o'tilgan uch sektor manfaatlarini muvofiqlashtirish va ijtimoiy hayotning barcha muammolarini hal etishdagi hamkorlikdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy sheriklikning eng muhim jihati bu taraflarning huquq va majburiyatlarga rioya qilish haqidagi o'zaro kelishuvi emas, balki ular o'rtasidagi munosabatlarning alohida eng nufuzli axloqiy qoidalar majmuidir.

Ijtimoiy sheriklikning yana bir xususiyati shundan iboratki, bu munosabatlar tizimida taraflar barchasi barcha sohada teng huquq va vakolatlarga ega bo'lgan va ijtimoiy kelishishga asoslangan hamda baravar manfaatdor bo'lgan taraflarning hamkorligidir.

Bizning mamlakatimiz ijtimoiy sheriklik tizimini amalga oshirishning huquqiy kafolatlari dunyo tajribasiga asoslangan holda ishlab chiqilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni davlat tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlanishiga, ular tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda davlatning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi masalalari ko'zda tutilgan. Eng muhimi nodavlat notijorat tashkilotlari jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Shu asnoda har bir fuqaroning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning sotsial faolligi va huquqiy madaniyatini oshirishga g'amho'rlik qilish va sharoitlar yaratish uchun o'z

faoliyatlarini yoʻnaltirmoqda. Xuddi shu maʼnoda bugungi kunda jamoatchilik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan oʻzaro samarali aloqasini taʼminlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan oʻzgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda.

Fuqarolik jamiyatining institutlari har bir davlat, shu jumladan Oʻzbekistonning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida juda muhim funksiyalarni amalga oshirmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov taʼkidlaganidek, “Fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfatlarni himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning oʻz salohiyatlarini roʻyobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini taʼminlashga koʻmaklashmoqda” (Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qoʻshma majlisdagi maʼruza. 2010 yil 12 noyabr. –T.: Oʻzbekiston, 2010. –B. 42).

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini ragʻbatlantirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining “Nodavlat-notijorat tashkilotlarni, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qoʻshma qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Jamoat fondi va parlament komissiyasi tashkil etildi. Parlament kommissiyasi tarkibiga Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat aʼzolari, Oʻzbekiston Respublikasi Adliya va Moliya vazirliklari tegishli tuzilmalari, nufuzli nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatlari va boshqa institutlari vakillari kiradi.

Jamoat fondi mablagʻlari bevosita nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarga ularning murojaatlari asosida va

Parlament komissiyasi qarorlariga muvofiq, subsidiyalar grantlar, ijtimoiy buyurtmalar tarzida ajratiladi.

Ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi qonun hujjatlari tanqidiy jihatdan tahlil qilinib, rivojlangan mamlakatlar tajribasi chuqur o'rganildi. Darhaqiqat, Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida ijtimoiy sheriklik bo'yicha alohida qonunlar qabul qilingan. Mazkur qonunlarda davlat organlari bilan nohukumat tashkilotlarining hamkorlik shakllari, tartiblari, munosabatlari va moliyalash usullari tartibga solingan.

Ijtimoiy sheriklik sohasidagi horijiy davlatlar tajribasiga chuqurroq e'tibor qilsak, bu sohaning ikki modelini ajratib ko'rsatishimiz mumkin, ya'ni ular bipartizm va tripartizmdan iborat. Ijtimoiy sheriklikning bipartizm ikki tomonlama modeli ish beruvchilar va xodimlarning ixtiyoriy, tomonlarning mustaqilligi va teng huquqliligi asosida manfaatlarni muvofiqlashtirishdan iborat. Ijtimoiy sheriklikning tripartizm ya'ni uch tomonlama modeli- ana shunday sheriklikda davlat hokimiyai vakillari ham ishtirok etadigan turi hisoblanadi. Sheriklikning bu qoidasi bo'yicha, hodimlar manfaatlarini ularning vakolatli tashkiloti-kasaba uyushmalar, ish beruvchilarni-ularning uyushmalari, davlatnikini esa- ijro etuvchi hokimiyatning organlari himoya qiladi.

Horijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy sherikchilikning bipartizm modeli mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlatning roli katta bo'lmagan ya'ni ish beruvchi birlashmalar va xodimlar tashkilotlari o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik amal qiladi hamda ijtimoiy nizolar chiqqanda davlat faqat hakam yoki vositachi rolida qatnashishi lozim. Ijtimoiy sherikchilikning bu modeli ko'proq AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya tajribalarida namoyon bo'lmoqda.

Ijtimoiy sherikchilikning tripartizm modelida hamkorlik teng manfaatlar asosida uch tomonlama shakllanadi va unda davlat faol ijtimoiy sherik rolini bajaradi. Mazkur modelning amal qilishi xalqaro tajribada Fransiya, GFR, Shvesiya va Avstriyada mavjuddir. O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik huquqiy asoslarining bugungi holatini o'rganish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XIII bobi ("Jamoat birlashmalari")ning normalarida belgilab berilgan qoidalar

asosida shakllanmoqda. Shu bilan birgalikda 2003 yil 29 avgustdagi “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 8-moddasida fondlarning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy sheriklik, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish asosida belgilangan. Davlat organlari fondlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarga rioya etilishini ta’minlaydi, qolaversa, fondlarning ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlari va loyihalarini ham qo‘llab-quvvatlash mumkin. Eng muhimi-davlat organlari va ularning mansaabdor shaxslari fondlar faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek, fondlarning davlat organlari va ularning mansaabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Ijtimoiy sheriklikning huquqiy asoslari yana O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 28, 52-moddalarida ko‘rsatib berilgan. Agar mazkur kodeksning 28–moddasida ish beruvchilarning jamoat birlashmalari ixtiyoriy jamoat tashkilotlari sifatida tuziladi va ish olib boradi, deb ta’kidlangan bo‘lsa, ushbu kodeksning 52-moddasida jamoa kelishuvlarida ijtimoiy sheriklik uch taraf lama hamkorlikni rivojlantirish, jamoa shartnomalar tuzishga ko‘maklashish, mehnat nizolarini oldini olish, mehnat intizomini mustahkamlash kabi qoidalar nazarda tutilishi mustahkamlab qo‘yilgan.

Ijtimoiy sherikchilikning qonuni manfaatlari teng muzokaralar jarayonida muvofiqlashtiriladi va tegishli hujjatlar-shartnomalar, bitimlar, kontraktlar orqali rasmiylashtiriladi.

Ijtimoiy sheriklik ham ijtimoiy munosabatlarning boshqa sohalari kabi huquqiy tartibga solinishi lozim. Shu munosabat bilan ijtimoiy sheriklik va uni amalga oshirish tamoyillari va mexanizmni tartibga solish, sog‘liqni saqlash, atrof-muhit muhafazasi aholi, ayniqsa yoshlarni ish bilan ta’minlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash hamda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan qonun loyihasi yaratish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri. Qonun loyihasi 5 bob, 31 moddadan iborat bo‘lib, unda mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratik yangilanish bo‘yicha ustivor yo‘nalishlardan kelib chiqqan

holda ijtimoiy sheriklikning asosiy sohaları qamrab olinadi. Bular jumlasiga: aholini ijtimoiy himoya qilish, qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy faoligini oshirish, ish bilan ta‘minlash, bandlikka ko‘maklashish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, shuningdek, atrof-muhit va aholi salomatligini asrash, shu tariqa yosh avlodni sog‘lom va har tomonlama sog‘lom voyaga yetkazish, onalik va bolalikni hamda ayollar huquqlarini himoya qilish nazarda tutilgan.

Yuqorida aytilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi taraqqiyot dasturlarini amalga oshirishda, muammolarni hal etishda turli qatlamlarning huquq, erkinliklarini va manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarning davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro munosabati tashkiliy huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishning huquqiy asosi va tayanchi bo‘lib xizmat qiladi.

<http://sies.uz/index.php/maqolalar/8-yangiliklar/158-ijtimoiy-sheriklik-demokratik-taraqqiyotining-yangi-bosqichi>